

SUV OMBORLARINING BOSHQA SUV HAVZALARIDAN FARQLANISHI VA UNDAN XO‘JALIKDA FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Mirzoyeva Istat Elmurodovna

(Buxoro davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi)

Eshmanov Husniddin Narzullo o‘g‘li

(Buxoro davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi)

Annatatsiya: Maqolada suv omborlarining boshqa suv havzalaridan farqlanishi hamda suv omborlarning o‘ziga xos xususiyatlari, suv omborlarning ilmiy - amaliy ahamiyati, suv resurslaridan foydalanishni oqilona tashkil qilish masalasini tobora dolzarb darajaga borayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: suv ombor, daryo, ko‘l, drenaj, irrigatsiya, gidroenergetika, gidrologik, gidrofizik - gidrobiologik jarayonlar, gidrodinamik zona, melioratsiya.

ОТЛИЧИЕ ВОДОХРАНИЛИЩ ОТ ДРУГИХ ВОДОЕМОВ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИХ ХОЗЯЙСТВЕННОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Мирзоева Истат Элмуродовна

(Старший преподаватель Бухарского государственного

технического университета)

Эшманова Хусниддина Нарзулло угли

(Студент 3-го курса Бухарского государственного технического

университета)

Аннотация: В статье приводятся сведения об отличии водохранилищ от других водоемов, а также об особенностях водохранилищ, научном и практическом значении водохранилищ, о том, что вопрос рациональной организации использования водных ресурсов становится все более актуальным.

Ключевые слова: водохранилище, река, озеро, дренаж, ирригация, гидроэнергетика, гидрологические, гидрофизико-гидrobiологические процессы, гидродинамическая зона, мелиорация.

DIFFERENCES OF RESERVOIRS FROM OTHER RESERVOIRS AND THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF THEIR ECONOMIC USE.

Mirzoeva Istat Elmurodovna

(Senior lecturer of Bukhara State Technical University)

Annotation: The article provides information on the differences between reservoirs and other water bodies, the specific features of reservoirs, the scientific and practical significance of reservoirs, and the increasing relevance of the issue of rational organization of water resource use.

Keywords: reservoir, river, lake, drainage, irrigation, hydropower, hydrological, hydrophysical-hydrobiological processes, hydrodynamic zone, land reclamation.

Suv resurslaridan foydalanishni to'g'ri tashkil qilish xo'jalik yuritishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Tabiatda mavjud tabiiy suv havzalari va ularning o'ziga xos jihatlari xo'jalik tizimini tashkil qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. O'z vaqtida buyuk sivilizatsiyalar suv havzalariga bog'liq ravishda shakllangan edi. Suv havzalarining ahamiyati zamonaviy taraqqiyotda ham muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa suvga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda suv resurslaridan foydalanishni oqilona tashkil qilish masalasini tobora dolzarb darajaga ko'tarmoqda. Bunday holatda suv resurslarini muhofaza qilish va tejamkorlik bilan foydalanish usullarini ishlab chiqish zarur. Azaldan otabobolarimiz suvni muqaddas ne'mat bilib, uning har tomchisidan samarali va tejamli foydalanishgan. Chunki, suv resurslarining miqdori va sifati jamiyatning barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini belgilaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ham mamlakatimiz taraqqiyotida suv resurslari alohida o'rin tutadi.[4]

Suv ombori – sun'iy barpo qilingan suv obyekti bo'lib, daryo vodiysida suvning yo'lini to'g'on yordamida to'sib suvni akkumulyatsiya qilish, saqlab turish va zarur vaqtda foydalanish uchun ishlatiladi. Suv omborini barpo qilishdan asosiy maqsad – daryo oqimi suv hajmini ichimlik suvi ta'minoti, irrigatsiya, gidroenergetika, sanoat, ekologiya, suv toshqini xavfi va boshqa talablarni ko'zda tutgan holda boshqarishdir.

Yer yuzining deyarli barcha mintaqalarida gidrotexnik inshootlarni qurish ishlari jadallik bilan bajarilib kelinmoqda. Ularning eng muhimlariga har xil

melioratsiya (sug'orish va yaxshilash) turlarini amalga oshirish maqsadida bunyod etilgan suv omborlari va kanallar kiradi.

Sayyoramizning global ekologik tizimlarida ko'lami va ahamiyati jihatidan insonning turli xil transformatsiviy faoliyatida ikkita jarayon alohida ajralib turadi: birinchisi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, sanoat va qurilish sohasi uchun yangi hududlarni o'zlashtirish va ikkinchisi gidrosferaning, daryo bo'g'inlarini gidrotexnik qurilishlar orqali yerlarni keng ko'lamli o'zgartirishdir.

Gidrotexnikaviy qurilishlar sayyoramizning barcha qit'alarida amalga oshiriladi. Melioratsiyaning har xil turlari (drenaj va sug'orish) va yangi suv havzalari - suv omborlari va kanallarni yaratish, juda muhim ahamiyatga ega). Suv omborlari har qanday darajadagi gidrotexnika va suv xo'jaligi tizimlarining asosiy elementlari hisoblanadi, chunki ular suv resurslarini tartibga solish, gidrosferani jamiyat xohlagan yo'nalishda o'zgartirishga imkon beradi.

Bizning fikrimizga ko'ra, suv omborlariga, suv almashinuvi sekin bo'lgan, umumiy hajmi 1 million metr³ dan ortiq bo'lgan zaxiralarni to'plash va keyinchalik iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda foydalanish uchun gidrotexnika inshootlari tomonidan doimiy ravishda tartibga solinadigan (nazorat qilinadigan) daraja rejimida, sun'iy ravishda yaratilgan vodiy, havza va tabiiy ko'l suv havzalari deb qaralishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, suv omborlaridan foydalanish, nafaqat suvni qaytarib bo'lmaydigan darajada tartib olish bilan bog'liq, baliqchilik, dam olish, elektr stansiyalarini sovutish, suv omborida kafolatlangan kema qatnovi chuqurligini saqlash va hokazolar uchun har yili iste'mol qilinadigan suv ta'minoti emas, balki suv maydoni va umuman suv massasi kerak.

Suv omborlari inson tomonidan boshqariladigan obyektlar hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, suv omborining asosiy parametrlari (hajmi, maydoni, joylashuvi va tartibga solish rejimi) va ular bilan birga boshqa ko'plab xususiyatlar hamda inson tomonidan boshqariladigan: gidroelektr majmualar, suv omboridagi suv hajmini va darajasini o'zgartirishga imkon beruvchi maxsus texnik tizimlar, inshootlar va qurilmalar (gidravlik turbinalar va h.zo) ni o'z ichiga oladi.

Suv omborlarini yaratishda yangi suv omboriga to'g'ridan to'g'ri tutash hududlarda ham, daryoning quyi oqimida ham, undan uzoqda joylashgan hududlarda tabiiy va iqtisodiy sharoitlarda turli xil o'zgarishlar ro'y beradi. Ushbu o'zgarishlarning ko'lami, chuqurligi va yo'nalishi, yangi suv omborining hajmi (maydoni, suv massasining hajmi, uzunligi, kengligi) va hududning o'ziga xos tabiiy sharoitlari bilan belgilanadi, bu esa suv omborining ta'sirini zaiflashtirishi yoki, aksincha, kuchaytirishi mumkin.

Suv omborlari, suv havzalari ichidagi jarayonlarning maxsus tizimi bilan tavsiflanadi, ya'ni ularga xos bo'lgan gidrologik, gidrofizik-kimyoviy va gidrobiologik jarayonlar boshqa suv havzalarida – ko'llar, daryolar va kanallarda kuzatiladigan jarayonlar bilan bir xil emas. Suv omborlarida o'zaro sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan, suv omborlari ichidagi jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi yetakchi omillar, suv almashinuvi va suv omborining sath rejimidir. Suv almashinuvining ko'rsatkichlaridan biri suv massasining to'liq o'zgarishi sodir bo'ladigan davrdir: har xil turdagi suv omborlari uchun u bir necha kundan bir necha yilgacha bo'lishi mumkin.

Turli suv havzalarida, suv sathining tebranishlari amplitudasi ham juda katta farq qiladi - pasttekislikdagi suv omborlari uchun bir necha o'n santimetrdan, tog'li suv omborlari uchun o'nlab va hatto 100 m dan ortiq. Aynan mana shu omillar suv havzalarida suv ombori ichidagi jarayonlarning rivojlanish shartlarini ko'l va daryolarga xos bo'lgan sharoitlardan ajratib turadi. Bu suv omborlarida, tranzit oqimining faol gidrodinamik zonalari, ya'ni suvning to'g'on tomon yo'naltirilgan harakati va suv zarralari juda murakkab yopiq trayektoriyalar bo'ylab harakat qilganda, girdobli aylanish zonalari hosil bo'lishida namoyon bo'ladi. [1; 9-13-b]

Suv omborlari inson tomonidan muayyan maqsadlarda, masalan, sug'orish, ichimlik suvi ta'minoti, gidroenergetika yoki suv toshqinlarini nazorat qilish uchun sun'iy ravishda yaratiladi. Ular odatda daryo vodiylarida to'g'on qurish yoki boshqa gidrotexnik inshootlar barpo etish orqali hosil qilinadi. Bunday inshootlar daryo oqimini to'sib, suvni yig'ish va kerakli vaqtda foydalanish imkonini beradi. [2; 26-b]

Suv omborlarining, ayniqsa, yirik suv omborlarining iqtisodiy ahamiyati ortib borayotgani, suv xo‘jaligi majmualarining shakllanishida namoyon bo‘ladi. Suv omborlari nafaqat suv xo‘jaligining o‘zi, balki ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar va munosabatlar tizimida ishtirok etadi. Suv ombori faqat bir tarmoq manfaatini ko‘zlab yaratilgan bo‘lsa ham, vaqt o‘tishi bilan xo‘jaligining boshqa tarmoqlari ham undan foydalanishdan manfaatdor bo‘ladi.

Suv omborlari gidravlik va suv xo‘jaligi aloqalari orqali avval daryo uchastkasi doirasida, so‘ngra daryo havzasi doirasida tabiiy-xo‘jalik munosabatlarining murakkab tarmoqlangan tizimiga ham kirishi muqarrar. Kelajakda yer usti oqimlarining havzalararo ko‘chishlari rivojlanishi bilan suv omborlarining asosiy roli yanada katta hududlarga tarqaladi.

Suv omborlarining qurilishi – tabiiy landshaftlarning qiyofasi, tuzilishi, sizot suvlarining yer yuzasiga muttasil yaqinligidan deyarli ko‘p joylarda tuproqlarning sho‘rlanishi hamda ulardagi kechayotgan jarayonlar va ekologik holatining butunlay o‘zgarishiga olib keladi. Bu esa, asosan, inson aralashuvi natijasida sodir bo‘lishi bevosita yoki bilvosita yangi tipdagi landshaftlarning shakllanishi va paydo bo‘lishiga olib keladi. [3; 10-b.].

Suv omborlarini qurish qurg‘oqchil hamda qishloq xo‘jaligi sug‘orishga asoslangan hududlar uchun, ayniqsa, zarurligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Авакян А.Б., Салтанкин В.П., Шарапов В.А. Водохранилища. М.: “Мысль” 1987.
2. Ikramova M.R. Suv omborlari gidrologiyasi. –Toshkent: Baktriya Press, 2019.
3. Каримов И.Э. Жиззах сув омбори таъсири доирасидаги геотизимларнинг ландшафт-экологик ҳолатини баҳолаш. География фанлари бўйича фалсафа фанлари доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Т: 2021.
4. Mirzoyeva I.E., Ergasheva M.K. Geographical characteristics agro landscapes of Kuyimozor Tudakul oasis // Экономика и социум. Россия. Журнал. №:2(105). 2023.-С.77-79.
5. Расулов А.Р., Никмалов Ф.Н., Айтбаев Д.П. Гидрология асослари. -Т.: “Университет”, 2003.